

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ALMANOV QAXRAMON OBLOQULOVICH

**XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JIZZAX VOHASI AHOLISI
ETNIK TARKIBI VA UNING ETNOTOPONIMIKADA AKS ETISHI**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of abstract of the doctor of science (DSc) dissertation

Allmanov Qaxramon Obloqulovich

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi.....3

Алманов Каҳрамон Облакулович

Этнический состав и этнотопономическая история населения Джизакского оазиса в конце XIX – начале XX века.....33

Almanov Kakhramon Oblakulovich

Ethnic composition of the population of the Jizzakh oasis and its reflection in ethnotponymy at the turn of the 19th – 20 th centuries.....67

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ALMANOV QAXRAMON OBLOQULOVICH

**XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA JIZZAX VOHASI AHOLISI
ETNIK TARKIBI VA UNING ETNOTOPONIMIKADA AKS ETISHI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi
07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida
B2022.1.DSc/Tar208 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Boboyorov G'aybullha Boliyevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayev Makset Abdibayevich
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Normuradova Go'zal Bekmuradovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyarovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "17 may 10 soat 00" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Asosiy bino konferensiylar zali. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz (Urganch davlat universiteti)).

Dissertatsiya matni bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1750raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti). Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12 may" kuni tarqatildi.

(2025-yil "02 may" dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi.)



U.I.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

X. X. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent

S. R. Davletov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda XX asr oxirlarida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar etniklik muammosi va milliy munosabatlar masalalarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘ldi. Yevropaning qator davlatlari, AQSh, Turkiya, Rossiya kabi davlatlarning davriy nashrlarida milliy va etnik o‘zliklar muammolari bosh mavzulardan biriga aylandi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va YUNESKO tamonidan xalqlarning milliy tarixi va jahon davlatchilik tarixida o‘troq va chorvadorlarning tutgan o‘rni, ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlaridagi ishtiroki va ular bilan bog‘liq joy nomlarini o‘rganish bo‘yicha yangi loyihalar ilgari surilmoqda. Sababi, aholining etnik tarkibini bilish ko‘p millatli davlatlarda samarali siyosatni ishlab chiqishda, etnik muammolar, etnonimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mintaqaviy siyosat, boshqaruv va madaniy xilma-xillikni saqlash bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dunyodagi qator rivojlangan davlatlar – AQSh, Italiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabilarning yetakchi tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyo mintaqasining o‘tmishi va buguni, xususan, o‘zbek xonliklari tarixi, azaldan turli etnik guruhlar yashab kelgan Buxoro amirligi va mintaqaning Rossiya imperiyasi bosqinidan keyingi davrlardagi etno-siyosiy va madaniy jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda¹. Biroq Buxoro amirligining 27 viloyat va bekliklaridan biri bo‘lgan Jizzax va rus bosqinidan keyin tashkil etilgan Jizzax uyezdining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimlarda aks etishi maxsus o‘rganilmagan. Shu sababli, Jizzax vohasining tarixiy, siyosiy-ma’muriy birliklarida aholining etnik tarkibi va etnotoponimlarini tarixiy-etnografik kontekstda tahlil etish dolzarbdir.

Bugungi kunga kelib, yangi O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, tarix, etnologiya tilshunoslikga oid tadqiqotlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, milliy tariximizni, xususan, so‘ngi o‘rta asrlar davri tarixini yozma manbalar arxiv va statistik materiallar asosida tadqiq qilish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: xalqimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish, tadqiqotlar o‘tkazish va jahon miqyosida targ‘ib qilish katta ahamiyatga ega².

Jizzax vohasi aholisining, XIX asr oxiri –XX asr boshlaridagi etnik tarkibi, joy nomlarining o‘ziga xosligi, etnotoponimlarning saqlanishi, vohada kechgan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar, ma’muriy hududiy birliklarda aholining joylashuvi kabi masalalarni yozma va etnografik materiallar tahlili orqali ochib berish, Jizzax vohasi, umuman olganda, O‘zbekistonda yashayotgan turli etnos va etnografik guruhlar va ular bilan bog‘liq etnonimlarning paydo bo‘lish jarayonlarini kuzatish imkonini beradi. Demak, O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va tolerantlikni yanada rivojlantirishda bu kabi tarixiy omillarni izchil o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

¹ <https://www.eva.mpg.de/index.html>, <https://www.unibo.it/en>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Turkiy Kengashning videokonferensiya shaklida o‘tkazilgan sammitidagi nutqi / Xalq so‘zi, 2021-yil, 1-aprel.

Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tog‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi O‘RQ 303-sonli “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori, hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³.

Markaziy Osiyoning qadimi tarixi, aholisi, madaniy aloqalari, o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati va ular bilan bog‘liq bo‘lgan vohalardagi shaharlar va manzilgohlar tarixini o‘rganish, xususan, Jizzax va unga tutash bo‘lgan Zarafshon va Nurota vohasining boy tarixi, tarixiy toponimiyasi, respublikamiz va Markaziy Osiyo mintaqasidagi joy nomlaridagi ulushi sezilarli darajada yuqori o‘ringa ega ekanligi, bu toponimlarning mintaqadagi o‘troq va chorvador aholi bilan uzviy bog‘liqligi, toponomik qatlamlarning turlicha bo‘lishi esa voha joy nomlarining o‘ziga xos va betakror xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi bilan izohlanadi. Etnotoponimlarda xalq tarixi aks etgani bois fanlararo tadqiqotlar uchun boy material sifatida tarixiy, etnologik, filologik, geografik, demografik va boshqa yo‘nalishlardagi tadqiqotlarga keng jalb etib kelingan. Xorij tadqiqotchilarining tadqiqotlariga qaralganda, mintaqamiz va unga tarixan yaqin hududlar, xususan, Afg‘oniston, Eron va Turkiya xalqlari etnik tarixi, o‘troq va ko‘chmanchi aholisi hayotiga qaratilgan tadqiqotlarda aholi tarkibidagi turli etnoslar va joy nomlariga ham e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari, muassasalari va bir qator oliy ta’lim dargohlari, jumladan, Illinoys universiteti Chikago, Stanford universiteti Californiya, Boulder Kolorado universiteti Boulder, Sent-Lyuisdagi Vashington universiteti Antropologiya bo‘limi (AQSh), Yevropa universiteti Sankt-Peterburg, Sibir Arxeologiya va etnografiya instituti (Rossiya), Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Insonlik tarixi bo‘yicha Maks Plank instituti (Germaniya), Bolonya universiteti (Italiya), Ilmiy izlanishlar milliy markazi

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.colorado.edu/> <https://anthropology.wustl.edu/> <https://isaw.nyu.edu/> <https://www.shh.mpg.de/en/>; <https://www.eva.mpg.de/index.html>; <https://www.unibo.it/en/>; <https://www.cnrs.fr/>, <https://www.mu.edu.tr/en>.

(Yaponiya), Belekesir universiteti (Turkiya), Mug‘la universiteti (Turkiya), Saljuq unversiteti (Turkiya) tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy markazlarda Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbeklarning etnik tarkibi va etnonimlari bilan bog‘liq nomlarning shakllanishida o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvadorlarning ko‘p asrlik siyosiy, etnogenetik va madaniy munosabatlarining ta’siri; mintaqadagi joy nomlarining shakllanishida turkiy qatlamning o‘rni, joy nomlarining qaysi tilga mansublik masalasi, mintaqqa xalqlarining tili, urf-odatlari va diniy e’tiqodlari kabi ustuvor yo‘nalishlar tadqiqotiga e’tibor qaratilgan. Asosan bu xorijiy ilmiy tadqiqotlarda mintaqadagi aholining ho‘jaligida ustivorlik qilgan chorvachilik bilan bog‘liq jarayonlar maxsus o‘rganilgan. Bunga misol qilib Jizzax vohasining tog‘lik tumanlaridagi tarixiy aholi maskanlari, aholining etnik mansubligi, qadimiy chorvador qabila va urug‘larning vohalarda joylashuvi, yaylovlari va dehqonchilik manzilgohlari kabi masalalar o‘rganilgan. Markaziy Osiyoning cho‘l va tog‘li hududlarida ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatga mansub aholi va ular bilan bog‘liq joy nomlari kabi masalalar o‘rganilgan (Illinoys universiteti Chikago, Stanford universiteti Stanford (Californiya, AQSH), Sent-Lyuisdagi Vashington universiteti Antropologiya bo‘limi (AQSh), Boulder Kolorado universiteti (Boulder, AQSH), Jizzax vohasi tarixiy joy nomlaridan biri bo‘lgan va aholisi etnik tarkibida, o‘troq va chorvadorlar ko‘pchilikni tashkil etadigan, tarixiy Zomin va uning hududlaridagi, chorvadorlar bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari o‘rganilgan (Ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi, Fransiya); Shuningdek Turkiyaning qator oliv o‘quv yurtlarida umumiy turk dunyosi doirasida olib borilayotgan tadqiqotlarda xam mintaqamizdagи tarixiy joy nomlari va ularning etimologiyasi bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda Belekesir universiteti, Mug‘la unversiteti, Saljuq unversiteti (Turkiya) da aholining madaniy aloqalari natijasida yuzaga keladigan jarayonlarga oid yangi fikrlar berilgan. Aholining etnik tarkibi va etnotoponimlarini o‘rganishda Yevropa olimlari ushbu masalani ko‘chmanchi aholi guruhlarida yaxshi saqlanishi, ular xo‘jalik tiplarini yaxshi saqlab qolganliklari, ular o‘zaro yaqin va bir madaniy makonda yashaganligi, ular bilan bog‘liq yer nomlarining shakllanishi, ma’muriy hududiy tuzilishida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning tasiri kabi umumiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi⁴. O‘rganilayotgan mavzuni yoritishda yozma va etnografik materiallar birlamchi ahamiyatga ega. Mavzu o‘rganilganlik darajasining o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu davr mintaqqa tarixi maxsus tanlab olinib o‘rganilmagan, ammo, mintaqada kechgan ijtimoiy – siyosiy va madaniy jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlarda aholi etnik tarkibi va bir qator aholi maskanlari to‘g‘risida malumotlar keltirib o‘tiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mintaqamizga kirib kelgan ayrim rus va boshqa g‘arb sayyoh va xarbiylarining qaydlari va estaliklarida vohadagi aholining etnik tarkibi va aholi maskanlariga oid ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotlarga qarab chiqish jarayonida mavzuning o‘rganilish darajasi quyidagi 4- bosqich asosida tahlil qilindi.

⁴ Tadqiqotning birinchi bobida bu xaqda batafsil ma’lumot berilgan.

1- bosqich: Rossiya imperiyasi vakili bo‘lgan sayyoh va xarbiy tadqiqotchilarining statistik va o‘lkashunoslik mazmundagi izlanishlari (XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to - XX asrning boshlarigacha);

2- bosqich: Sovet davridagi, etnografik va statistik mazmundagi tadqiqotlar (XX asrning 90-yillarigacha) ;

3- bosqich: Mustaqillik davridagi, vohaning qadimiy joy nomlari, aholisi va ular bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar, aholining tarkibidagi etnografik guruxlar va ularning o‘zaro ichki to‘p va tarmoqlarga bo‘linishi kabi masalalarga oid tadqiqotlar (XX asr 90-yillari va bugungi kungacha)ni o‘z ichiga oladi;

4- bosqich: Xorijiy tadqiqotlar, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi masalasida xorijda tadqiqotlar bevosita amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, lekin, vohadagi aholi etnik tarkibida mavjud bo‘lgan bir qator yetakchi urug‘ va qabilalarning mintaqada xususan, amirlik hududida joylashuvi va ular bilan bog‘liq siyosiy jarayonlar ayrim g‘arb olimlarining ishlarida keltirib o‘tilgan. Buxoro xonligi yoki amirligida yetakchi mavqega ega bo‘lgan urug‘ va qabilalarning ayrimlari xususan, yuz, qirq mang‘it, qo‘ng‘iroq va boshqa 92 bovli o‘zbek urug‘lari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan xorijlik tadqiqotchilardan bo‘lgan, Edward A. Allworth, August Nabe Samie, Yu. Bregel, Anke fon Kyugelgen, tadqiqotlaridagi keltirilgan urug‘lar Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibidagi yetakchi etnografik guruxlardan bo‘lib aholi joy nomlarining katta qismi shu urug‘lar bilan bog‘liqligi kuzatiladi. Yana bir tadqiqotchi Yu. Skaylerning ishlarida esa, vohadagi ayrim aholi maskanlariga oid ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Vohaning qadimiy tarixi va tarixiy toponimikasi bo‘yicha xam xorijda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasidagi doirasida AIF 1/2 raqamli “Oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida “O‘quv-ilmiy kompleks” tashkil etish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan(2020-2023 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishini tarixiy va etnografik materiallar asosida ilmiy tahlil qilish orqali mintaqadagi tarixiy jarayonlarni yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi masalasi o‘rganilishining metolodogiyasi, manboshunosligi va tarixshunosligini yoritish;

Buxoro amirligi davrida Jizzax vohasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o‘rganish;

Jizzax vohasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarning tarixiy-jo‘g‘rofiy manzarasini XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixiy kontekstida ko‘rsatib berish;

XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi siyosiy-ma’muriy birliklarda aholining etnik omillarga ko‘ra joylashuv xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

Jizzax vohasining tog‘li hududlari bo‘lgan Zomin, Baxmal, Yangiobod, Forish, G‘allaorol kabi siyosiy-ma’muriy birliklaridagi etnik jarayonlarni tadqiq etish;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibining o‘ziga xosligi, turmush tarzi turlichcha bo‘lgan (o‘troq, yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi) etnoslarning voha bo‘ylab joylashuv xususiyatlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan joy nomlari tarixiy manzarasini ko‘rib chiqish;

Etnotoponimlarni tarqalish areallari, paralellari, qaysi etnik guruhga mansubligini, tarixiy va etimologik asoslarini o‘rganish;

Vohadagi turli xil etnoslar madaniyatining o‘zaro munosabati va ta’siri, shuningdek, madaniy bixillashuv (unifikatsiya) va uning natijasida etnolokal madaniyatning shakllanish jarayonlarini tahlil etish.

O‘rganilayotgan davrda Jizzax vohasining toponimik qatlamlarini aniqlash va qiyosiy tahlil etish;

Jizzax vohasining toponimik fondidan joy olgan hududiy aholi guruxlari, ijtimoiy toifa bilan bog‘liq aholi maskanlarini aniqlash;

Voha joy nomlarida etnonim, antropotonom, patronim va kasb-hunar bilan bog‘liq aholi maskanlarini aniqlash va xaritalashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimlilik, fanlararo yondashuv, tarixiy-retrospektiv usul, qiyosiy tahlil, shaxsiy kuzativ kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasida etnonimlarning tarqalishi turlichcha bo‘lib, ular orasida ko‘pchilikni tashkil etadigan turkiy elatlar bilan bog‘liq er nomlari tarixan turli bosqichlarda shakllangani, ularning bir qismi – “turk”, “abdal” “barlos”, “jaloyir” kabilalar rivojlangan O‘rta asrlarga tegishli ekanligi dalillangan;

bu davrda Jizzax vohasidagi etnotoponimlarning aksariyatini O‘rta asrlarda yetakchi bo‘lgan o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq nomlar tashkil etishi, ular orasida etnik mansublik xususiyatlarini yaxshi saqlab qolgan yuz, qirq, turk (barlos, kaltatoy, musobozori), nayman, saroy, qipchoq, qang‘li, mang‘it, bahrin, kerayit, turkman-juzlar bilan bog‘liq qishloq va ovullar nomlari, shuningdek, urug‘ nomlari tarzidagi mohiyatini ham saqlab qolganligi ko‘rsatib berilgan;

Jizzax vohasi mahalliy aholisi bo‘lgan turkiy tilli va so‘g‘diy tilli aholining voha bo‘ylab tarqalish jo‘g‘rofiyasi tahlil qilinib, ularning nisbati qaysi ma’muriy hududlarda ko‘proq yoki ozroq ekanligi, ular bilan bog‘liq joy nomlari tog‘, tog‘oldi, dasht hamda suv havzalarining qaysi birida ko‘proq uchrashi aniqlangan va xaritalashtirilgan;

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Baxmal, Zomin va Forish hududlari hamda Sangzor daryosining o‘rta va quyi havzalaridagi siyosiy-ma’muriy birliklar aholisining turli-tumanlik kasb etishi va voha toponimik qiyofasida katta o‘zgarishlarning yuz berishi O‘rta asrlarda, xususan, so‘nggi O‘rta asrlarda bu erga

turli hududlardan migrantsiyalar orqali kirib kelgan ko‘chmanchi aholining o‘troqlasha boshlagani bilan bog‘liqligi aniqlangan;

XIX – XX asrlar oralig‘ida Jizzax vohasidagi aholi maskanlari orasida etnotoponimlarning yoppasiga ko‘payishi aniqlanib, bunga sabab shayboniylardan to boshqa o‘zbek xonliklari davrigacha bo‘lgan vaqt kesimida turkiylarning ko‘chmanchi toifalari, xususan, ko‘chmanchi turkiy tilli elatlar – o‘zbek, qozoq va qirg‘izlarning o‘troqlashib, vohada o‘zlarining bir qancha o‘nlab qishloq va ovullariga asos solganliklari bilan bog‘liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar:

turli tillardagi yozma manbalar, arxiv materiallari va statistik hujjatlarga asoslangan holda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi aholining tarkibi va etnotoponimlari haqidagi ma’lumotlar ochib berilgan bo‘lib, bu ko‘p millatli davlatlarda, xususan, O‘zbekistonda millatlararo bag‘rikenglikni targ‘ib qilish tamoyillarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega;

tadqiqotga tortilgan XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Jizzax vohasidagi etnik o‘zlikni anglash masalalari yirik etnik guruhlar (yuz, qirq, saroy, qang‘li, turk, turkman, mang‘it, bahrin, barlos, nayman, qipchoq, xitoy, qaropchi, bag‘analı va b.) misolida talqin qilinib, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, assimilyatsiya jarayonlari hamda etnik guruhlarning ijtimoiy munosabatlaridagi an‘anaviylik hamda yangiliklar ko‘rsatib berilgan, vohada yashovchi aholi tarkibi va etnotoponimik tarixi o‘rganilib, ular joylashuvining tarixiy jo‘g‘rofiyasi tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, bevosita O‘zbekiston davlat milliy arxivi, va bu davrga oid bo‘lgan Samarqand viloyati kitobi, etnografik va statistik materiallar, aholini ro‘yxatga olish qaydnomalari birlamchi manbalar sifatida ishga jalb qilinganligi va mavzuga yaqin yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalarining tadqiqot ishiga jalb qilinganligi, hamda olingan natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan o‘z tasdig‘ini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati etnik tarkib va etnotoponimlarni o‘rganishda fanlararo yondashuvlar, bugungi kundagi fanda qo‘llanilayotgan yangicha nazariyalardan foydalanish tadqiqotning ilmiy ahamiyati xisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarix fanining “O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi”, “Etnomadaniyat”, “O‘zbekiston tarixi”, “Tarixiy geografiya”, “Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi” kurslaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo‘nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish hamda so‘nggi o‘rta asr tarixiga oid ilmiy-nazariy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtira borishda ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasida etnonimlarning tarqalishi turlicha bo‘lib, ular orasida ko‘pchilikni tashkil etadigan turkiy elatlar bilan bog‘liq yer nomlari tarixan turli bosqichlarda shakllangani, ularning bir qismi – “turk”,

“abdal” “barlos”, “jaloyir” kabilar rivojlangan o‘rta asrlarga tegishli ekanligiga oid xulosalardan, shuningdek bu davrda Jizzax vohasidagi etnotoponimlarning katta ko‘pchilagini o‘rta asrlarda yetakchi bo‘lgan o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq nomlar tashkil etishi, ular orasida etnik mansublik xususiyatlarini yaxshi saqlab qolgan yuz, *qirq, turk* (barlos, kaltatoy, musobozori), *nayman, saroy, qipchoq, qang‘li, mang‘it, bahrin, kerayit, turkman-juz*lar bilan bog‘liq qishloq va ovullar nomlari, shuningdek, urug‘ nomlari tarzidagi mohiyatini ham saqlab qolganligi ko‘rsatib berilganligi kabi ilmiy natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Bir qishloq tarixi” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 1- apreldagi 01-33/203-son ma’lumotnomasi). Bu esa Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi va uning etnotoponimlarda aks etishni o‘rganishda muhim ro‘l o‘ynagan;

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Sirdaryo viloyati” telekanalida 2024-yil 16-mayda efirga uzatilgan “Biz suv ichgan daryolar” ko‘rsatuvining senariylarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Sirdaryo viloyati” telekanali davlat muassasasining 2024-yil 28-dekabrdagi 216-son ma’lumotnomasi). Bu esa Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibining o‘ziga xosligi, turmush tarzi turlicha bo‘lgan (o‘troq, yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi) etnoslarning voha bo‘ylab joylashuv xususiyatini o‘rganishda, ko‘rsatuv mazmunini boyitishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynagan;

Jizzax vohasi mahalliy aholisi bo‘lgan turkiy tilli va so‘g‘diy tilli aholining voha bo‘ylab tarqalish jo‘g‘rofiyasi tahlil qilinib, ularning nisbati qaysi ma‘muriy hududlarda ko‘proq yoki ozroq ekanligi, ular bilan bog‘liq joy nomlari tog‘, tog‘oldi, dasht hamda suv havzalarining qaysi birida ko‘proq uchrashi aniqlangan va xaritalashtirilganligi xaqidagi ma’lumotlardan va tadqiqotning ilmiy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 7-yanvardagi 02-05/51-son ma’lumotnomasi). Natijada, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax hududida joylashgan aholi manzilgohlari va ularning qanchasi etnonim, patronim, antropotoponim, qanchasida hududiy aholi guruxlari va ijtimoiy toifa, va kasb-hunar bilan bog‘liq nomlar aks etganligiga oid ilmiy natijalar vohaning tarixiy ildizlarini aks ettiruvchi bu kabi etnonimlar ko‘plab tarixchilar va sayyohlarda katta qiziqish uyg‘otgan;

XIX – XX asrlar oralig‘ida Jizzax vohasidagi aholi maskanlari orasida etnotoponimlarning yoppasiga ko‘payishi aniqlanganligi, bunga sabab shayboniylardan to boshqa o‘zbek xonliklari davrigacha bo‘lgan vaqt kesimida turkiylarning ko‘chmanchi toifalari, xususan, ko‘chmanchi turkiy tilli elatlar – o‘zbek, qozoq va qirg‘izlarning o‘troqlashib, vohada o‘zlarining bir qancha o‘nlab qishloq va ovullariga asos solganliklari bilan bog‘liqligi, kabi joy nomlariga oid yangicha ilmiy natijalardan O‘zbekiston yoshlari ittifoqi tomonidan o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatiga tatbiq etilgan. O‘zbekiston yoshlari ittifoqi targ‘ibot faoliyatida material sifatida ulardan foydalanilgan (O‘zbekiston yoshlari ittifoqining 2024-yil 25 yanvardagi 04-13/74-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Jizzax vohasi tarixiga oid qarashlar yoshlari orasida targ‘ibot ishlarida xal qiluvchi ro‘l o‘ynagan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Baxmal, Zomin va Forish hududlari hamda Sangzor daryosining o‘rta va quyi havzalaridagi siyosiy-ma’muriy birliklar aholisining turli-tumanlik kasb etishi va voha toponimik qiyofasida katta o‘zgarishlarning yuz berishi o‘rta asrlarda, xususan, so‘nggi o‘rta asrlarda bu yerga turli hududlardan migratsiyalar orqali kirib kelgan ko‘chmanchi aholining o‘troqlasha boshlagani bilan bog‘liqligi, vohada o‘zlarining bir qancha o‘nlab qishloq va ovullariga asos solganliklari kabi masalalar bilan bog‘liq materiallardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-2023-yilarda o‘tkazilgan targ‘iboti faoliyatida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishida belgilangan “O‘zbekistondagi yangilanish jarayonlari, amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish, “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan umummilliy harakatni yuzaga keltirish chora-tadbirlari” 9-bandi mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar mazmunini aholining turli qatlamlariga tushuntirish, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda xalq birdamligi va daxldorligini kuchaytirishga qaratilgan “Uyg‘onish ma’rifati” nomli turkum ko‘rsatuvalar tashkil etishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. Ushbu markazning 2023-yil uchun chora-tadbirlari dasturining 8-bandida belgilangan vazifalarni bajarishda ham dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tomonidan 2023-yil 29-noyabrda berilgan № 02-22/1320-sonli dalolatnama). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibining etnotoponimikada aks etishi tarixini o‘rganishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgani.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, 1 monografiya, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 16 ta (ulardan 12 tasi respublika, 4 tasi xorij jurnallari) maqola e’lon qilingan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 218 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslanib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, o‘rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda uning obyekti va predmeti belgilab olingan. Ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning tarix fani uchun nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning

aprobatasiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Muammoning metodologiyasi, manbashunosligi va tarixshunosligi"** deb nomlangan ushbu bobda mavzuni o'rganishda fanlararo yondashuv, nazariy va metodologik qarashlar tahlili, mavzuning manbashunosligi va tarixshunosligi masalalari tahlil qilingan. Mazkur bobning *"Voha aholisi etnik tarkibi va toponimika masalalarini o'rganishda fanlararo yondashuv: nazariyasi va metodologiyasi"* deb nomlangan birinchi paragrafida etnik tarkib masalasi, uning tarixan shakllanish bosqichlarini o'rganishda tarix, etnologiya, antropologiya, sotsiologiya, jug'rofiya, tilshunoslik kabi turli fan yo'nalishlari metodlaridan foydalanish ma'lum darajada samarali ilmiy yechimlarga erishish imkoniyatini beradi. Shundan kelib chiqib dissertatsiyada etnik tarkib masalasini o'rganishda tarixiy-sivilizatsiyaviy yondashuv, tarixiy-jug'rofiy mansublik, madaniy vorisiylik va etniklik konsepsiyasi, primordial va konstruktiv yondashuvlar, qiyosiy-tilshunoslik kabi turli nazariy-metodologik yondashuvlarni taqozo etdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Jizzax vohasida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardagi fikr va mulohazalar, tarix fanida tan olingan usullar va nazariy yondashuvlar, tarixiy va etnologik ilmiy adabiyotlar hamda ilmiy-nazariy tadqiqotlar tahlil etilgan.

Hozirgi vaqtida odatdagi etnografik uslublari asosida aholining etnik tarkibini o'rganish ancha qiyin masala. Qolaversa uzoq asrlar oldin u yoki bu mintaqada joylashib qolgan etnik guruhlar allaqachon o'troqlashgan va urug' nomlarini unutganlar. Shu sababli ham aholi etnik tarkibining haqiqiy manzarasini tiklashda toponimlarning manba sifatidagi roli salmoqlidir.

Vohada ayrim etnik guruhlarning u yoki bu mintaqalarda qaysi tarixiy davrlarda yashaganligi haqida yozma va ilmiy manbalardagi ma'lumotlar yetarli emas. Albatta, bu bo'shliqni etnotoponimik ma'lumotlar to'ldiradi. Etnotoponimlar – tilshunos olim N.Oxunov ta'kidlaganidek, ular uzoq tarixiy davrlar yodgorligi bo'lib, ma'lum xalqning tarixini, etnik tarkibini o'rganishda ularning tarqalish chegarasini ko'rsatishda va aniqlashda muhim manba sifatida g'oyat qimmatlidir⁵.

O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan ko'plab etnik guruhlar migratsiya sababli joylashib, mahalliy aholi bilan etnik madaniy munosabatlarda bo'lganlar. Ularning ko'pchiligi vaqt o'tishi bilan o'troq aholiga aralashib etnik nomlarini unutib yuborganlar. Lekin ayrim etnik guruhlarning nomlari ular yashagan joy nomlariga o'tib qolgan. Turli etnik guruhlarni ma'lum bir hududda uzoq yashab, bu joylardan ko'chib boshqa mintaqalarga borib joylashib qolish hollari ham bo'lgan. Shunga qaramay ularning etnik nomi avvalgi yashagan joylarida uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolavergan.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi paragrafi *"XIX asr oxiri – XX asr boshlarida voha aholisi etnik tarkibi va joy nomlariga oid tarixiy manbalar tahlili"* deb nomlangan. Ikkinci paragrafda Jizzax vohasi tarixi va unda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar beruvchi manbalar quyidagi turkumlarga bo'linib, tahlil qilingan.

⁵ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент, 1989. – Б. 9.

1. Xonliklar davrida yaratilgan manbalar. Bu manbalarda o‘lka aholisi va uning etnik tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keng ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ma’lum bir qal‘a va rabotlar to‘g‘risida qisqa ma’lumotlar keltirilar ekan, bu borada ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgani kuzatiladi. Shuningdek, bu davrida yaratilgan bir qator manbalarda, o‘lka aholisi tarkibidagi urug‘larning tarixi, ularning voha hududlariga kirib kelish jarayoniga doir ma’lumotlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, XVI asrda yashagan Mulla Sayfiddin Axsikatiy va uning o‘g‘li Nur (yoki Navro‘z) tomonidan yozilgan “Majmua at-tavorix”, qo‘qonlik savdogar Avaz Muhammad tomonidan yozilgan “Tuhfat at-tavorixi xoniy” asaridagi⁶ ma’lumotlar muhimdir. Mintaqa aholisining tarkibi bo‘yicha yozma manbalarga tayanib, tadqiqotlar olib borgan T.I.Sultanov “Tavorixi Mo‘g‘oliya” va “Tavorixi zubdat al-Bashar” qo‘lyozmalariga asoslanib, voha aholisining tarkibida yetakchi urug‘lardan bo‘lgan “qirq”, “ming”, “yuz” kabi urug‘lar hamda ularning joylashuv o‘rniga oid ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tgan⁷.

2. Rossiya imperiyasi tomonidan Jizzax vohasi bosib olinganidan so‘ng yaratilgan rasmiy amaldorlar va taftish komissiyalarining ma’lumotlari, statistik materiallar, turli yilnomalar, shuningdek, nashr etilgan bir qancha asarlar va maqolalar Bularga misol qilib V.I.Masalskiy, A.I.Maksheyev⁸, A.D.Grebenkin⁹ va, G.Arandarenko¹⁰ A.P.Xoroshxin¹¹, M.N.Rostislavov¹², D.G.Kolokoltsovlar¹³ tomonidan yozilgan materiallarni aytish mumkin.

3. Arxiv hujjatlari va statistik materiallar. (*aholini ro‘yxatga olish kitoblari va 1924-yilgi rayonlashtirish haqidagi ma’lumotlar*);

Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibini o‘rganishda arxiv va statistik manbalar muhim ahamiyatga ega. O‘lkaga tashrif buyurgan rus tadqiqotchilar va harbiylarining hisobotlarida ba’zan o‘lka aholisi va uning etnik tarkibiga oid ma’lumotlar uchraydi¹⁴. Jizzax uyezdi Samarqand okrugi tarkibidagi o‘z aholisi soni va etnik xilma-xilligi bo‘yicha Samarqanddan keyingi o‘rinda turadigan ulkan maydonga ega voha edi¹⁵. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivining “Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi” (f.I-1), “Samarqand viloyati boshqarmasi” (f.I-18), “Jizzax uyezdi boshlig‘i boshqarmasi” (f.I-21) kabi fondlardagi materiallar va

⁶ Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатий» // Средняя Азия в древности и средневековье (история и культура). – М., 1977. – С. 17-41.

⁷ O‘sha asar.

⁸ Масальский В.И. Туркестанский край. – Спб.: Изд. А.Ф.Девриена, 1913; Макшеев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае. Записки Императорского Русского географического общества по отдельению статистики. – Спб., 1871. – 60 с.

⁹ Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки. // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып. 2. – М., 1872. – С. 1-3.

¹⁰ Арандаренко Г. Скотоводство в Зарафшанской долине // Туркестанские ведомости, 1881. – № 8.

¹¹ Хорошхин А.П. “Кызылкумский дневник” // Хорошкин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 398-402.

¹² Ростиславов М.Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае. – СПб., 1876. – 335 с.

¹³ Колокольцов Д.Г. Экспедиция в Хиву в 1873 году: от Джизака до Хивы (Походный дневник). – Санкт-Петербург, 1873. – С. 383.

¹⁴ Магидович Н. Административное деление Бухары до национального размежевания // Материалы по районированию Средней Азии. Кн. I. Территория и население Бухары. – Ташкент: Узгостиздат, 1926. – С. 185.

¹⁵ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Самаркандской области. – СПб., 1905. – С. 26. // https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/41116#cite_note-2 Материалы по землепользованию туземного кочевого населения района Голодной степи и прилегающих местностей Ходжентского и Джизакского уездов Самаркандской области. – Ташкент, 1914. – С. 17.

aholini ro‘yxatga olish to‘plamlari va “Samarqand viloyatining ma’lumot kitobi” muhim manbaviy asos bo‘lib xizmat qildi¹⁶.

5. Og‘zaki axborotlar asosida yaratilgan turli nasabnomalar. Voha tarixini o‘rganishda muhim o‘rinda turuvchi manbalar qatoriga Jizzax vohasi hududida yashovchi xalqlarning o‘z ota-bobolaridan eshitgan og‘zaki tarzdagi ma’lumotlari asosida jamlangan turli nasabnomalarini ham kiritish mumkin. Biroq muammo sifatida aytish joizki, faqat eshonlar, ho‘jalar va feodallarning nasabnomalari muhr bosilgan holda saqlangan, oddiy aholining statistikasi bilan bog‘liq yozma hujjatlar deyarli yo‘q va ularni o‘rganish alohida tadqiqot spektrini talab etadi. Vohada yashayotgan turli etnos va subetnoslarning o‘z shajaralarini bilishga bo‘lgan intilishlari natijasi o‘laroq vujudga kelgan bu turdagи manbalar ham mintaqa tarixini turli manbalar asosida yoritishda o‘zaro qiyosiy tahlil qilish uchun muhimdir. Birinchi bobning uchinchi paragrafi “*Mavzuning tarixshunoslik tahlili*” deb nomlangan. Jizzax vohasi tarixi uning tabiiy-geografik o‘rni, joylashuvi, aholisi, madaniy hayoti, aholining etnik tarkibi va etnotoponimlari bo‘yicha dastlabki ilmiy izlanishlar XIX asrning so‘nggi choragida boshlangan bo‘lib, asosan, rus sharqshunos va etnograf olimlari Zarafshon vohasiga tashrif buyurib, bu borada o‘zlarining dastlabki fikr-mulohazalarini bildirib o‘tishadi. Voha tarixining o‘rganilish davrlari quyidagi shartli turkumlarga bo‘lib, ko‘rib chiqiladi:

1. Rossiya imperiyasi davri tarixshunosligi. Jizzax vohasidagi dastlabki ilmiy izlanishlar o‘lkani o‘zlashtirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, bu davrga oid rus sayyoohlari, harbiylari, geograflari, sharqshunoslari, tarixchilari hamda boshqa soha vakillarining bir qator asarlarida o‘lkaning geografik joylashuvi, o‘lkada yashayotgan aholining soni, etnik tarkibi, yer-suv munosabatlari kabi masalalarga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Xususan, A.D.Grebenkin¹⁷, A.I.Maksheyev¹⁸, G.Arandarenko¹⁹, A.P.Xoroshxin²⁰, M.N. Rostislavov²¹, D.G. Kolokoltsov²², A.E. Snesarev²³ va L.N. Sobolyevlar²⁴ tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘lka aholisi va uning hududlarda joylashuvi, etnik mansubligi va bir qator joy nomlari xaqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Rus imperiyasi vakillarining o‘lkani tadqiq qilish bilan bog‘liq ma’lumotlari va materiallari doimiy “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining sonlarida e’lon qilib borilgan. Mintaqani ilmiy ekspeditsiya orqali o‘rgangan rus sharqshunos-turkologi V.V.Radlov Zarafshon vohasidagi uyezdlarga, xususan, Samarqand okrugining turli uyezdlariga tashrif buyurib, mahalliy aholi etnik tarkibi,

¹⁶ Самарканд. обл. стат. ком. Справочник и адрес-календарь Самаркандской области... – Самарканд, 1896-1914

¹⁷ Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып. 2. – М., 1872. – С.1-3.

¹⁸ Макшев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае. 1871. – 60 с.

¹⁹ Арандаренко Г. Скотоводство в Зарабшанской долине // Туркестанские ведомости, 1881. – № 8.

²⁰ Хорошхин А.П. Кызылкумский дневник // Сборник статей касающихся до Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 398-402.

²¹ Ростиславов М.Н. Очерк видов земельной собственности и поземельный вопрос в Туркестанском крае. – СПб., 1876. – 335 с.

²² Колокольцов Д.Г. Экспедиция в Хиву в 1873 году: от Джизака до Хивы (Походный дневник). – Санкт-Петербург, 1873. – С. 383.

²³ Снесарев А.Е. Индия как главный фактор в среднеазиатском вопросе. – СПб., 1906. – 183 с.

²⁴ Соболев Л.Н. Географическая и статистическая сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Зап. Рус. геогр. общ-ва. Отд. статистики. Т. IV. – СПб., 1874. – 561 с.

tili va lajha xususiyatlarini batafsil tadqiq etgan²⁵. Jizzaxning qadimiy tarixi, aholisi va joy nomlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilardan P.I.Lerx (1867), A.Kushakevich (1870-yy.), N.S.Likoshin (1890-yy.), V.V.Bartold (1894), P.S.Skvarskiy larning (1896) ishlarini alohida ajratib ko'rsatib o'tish mumkin²⁶.

2. Sovet davri tarixshunosligi. Jizzax vohasining qadimiy tarixi bo'yicha sovet davri tarixshunosligida yaratilgan tadqiqotlar ancha sermahsul va salobatlidir. Mintaqa etnotoponimikasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishni birinchilardan bo'lib V.V.Bartold, O.A.Suxareva, B.X.Karmisheva kabi tadqiqotchilar boshlab berdilar²⁷. Shuningdek, Jizzax vohasining tarixiy ildizlarini o'rgangan N.Negmatov, O.I.Smirnova, V.A.Livshits, A.Babaxanov kabi tadqiqotchilarining ham bir qancha ilmiy farazlari o'lka tarixini o'rganishda salmoqli o'ringa ega bo'ldi²⁸. Xususan, Zarafshon vohasidagi yirik markaziy hududlar Buxoro, Samarqand viloyatlari va O'zbekistonning janubiy hududlari etnik qiyofasini o'rgangan tadqiqotchilar bu hududlardagi tadqiqotlari orqali u yoki bu darajada Jizzax vohasiga, uning etnotoponimikasiga ham qisqacha to'xtalib o'tganlar²⁹.

3. Mustaqillik davri tarixshunosligi. Mintaqamizning tarixiy toponimiyasi, shu jumladan, Jizzax vohasi aholisi tarkibi, toponimlari, xususan, etnotoponimlari bo'yicha ko'p yillardan beri tadqiqotlar olib borgan U.To'ychiyev, A.Qayumov, S.Qorayev, H.Hasanov, E.Murzayev, Q.Hakimov, P.G'ulomov, I.Karimov, M.Pardayev, B.To'ychiboyev, Q.Qashqirli, G'.Boboyorov, A.Zokirov, M.Mirakmalov, T.Salimov, G.Normuradova, A.Tog'ayev, A.Bababekov, U.Alibekov, Q.Almanov, A.Pardayev, B.Mirkamilov, A.Bazarbayev, B.O'rinoiboyevlarning maqola va monografiyalarida o'lka tarixining yangicha talqinlari keltirib o'tilganiga guvoh bo'lamiz³⁰. Ayniqsa, voha toponimlari borasida S.Qorayev va Q.Hakimov tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar o'zining keng ko'lamliligi va izchilligi bilan alohida ajralib turadi³¹. Shuningdek, Zarafshon vohasi

²⁵ Радлов В.В. Из Сибири. Страницы дневника. – М., 1989. – С. 532-578.

²⁶ Алманов К. Ғарбий турк ҳоқонлиги даврида Уструшона: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – К; 2021. – Б. 21-22; Алманов К.О. Илк ўрта асрлар Уструшона тарихининг ўрганилиши // Қадимий Жиззах воҳаси – тарих, маданий тараққиёт ва замонавий ўзгаришлар чорраҳасида" мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси. – Жиззах; 2021. – Б. 124-128.

²⁷ Бартольд В.В. Статьи из "Энциклопедии Ислама" / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М., "Наука", 1964. – С. 497; Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М., "Наука", 1966.; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – М., "Наука", 1976.; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: "Наука", 1976.

²⁸ Негматов Н.Н. Уструшана в борьбе с арабским наществием (конец VII – первая половина IX вв.) // ИАН Тадж. ССР. ООН. Вып. 5. 1954.; Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннего средневековья. – Сталинабад, 1957.; Негматов Н.Н. О живописи дворца афшинов Уструшаны (предварительные сообщение) // Советская археология, – №3. – М., 1973.; Смирнова О.И. Очерки из истории Согда ... – С. 54.; Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux ... – Р. 140.

²⁹ Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии // Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М., "Наука", 1964. – С. 19-194.; Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М., "Наука", 1966.; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи историей кварталов). – М., "Наука", 1976.; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). – Москва: "Наука", 1976.

³⁰ Bu mualliflarning tadqiqotlari yuqorida keltirib o'tilgan.

³¹ Ҳакимов К. Жиззах вилояти топонимлари / – Жиззах: Санззор, 2014. – 204 б.

etnotoponimlari bo'yicha tadqiqot olib borgan U.To'ychiyevning tadqiqotlarida Jizzax vohasi etnotoponimlariga ham bir qadar e'tibor qaratilgani kuzatiladi³².

4. Voha tarixining xorijiy tadqiqotlarda o'rganilishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasining aholisining etnik tarkibi va uning etnotoponimikada aks etishi masalasida xorijda tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lib, lekin, vohadagi aholi etnik tarkibida mavjud bo'lgan bir qator yetakchi urug' va qabilalarning mintaqada xususan, amirlik xududida joylashuvi va ular bilan bog'liq siyosiy jarayonlar ayrim g'arb olimlarining ishlarida keltirib o'tilgan. Buxoro xonligi yoki amirligida yetakchi mavqega ega bo'lgan urug' va qabilalarning ayrimlari xususan, yuz, qirq mang'it, qo'ng'iroq va boshqa 92 boqliki o'zbek urug'lari xaqida ma'lumotlar keltirib o'tgan xorijlik tadqiqotchilardan bo'lgan, Edward A. Allworth, August Nabe Samie, Yu. Bregel, Anke fon Kyugelgen, tadqiqotlaridagi keltirilgan urug'lar Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibidagi yetakchi etnografik guruxlardan bo'lib aholi joy nomlarining katta qismi shu urug'lar bilan bog'liqligi kuzatiladi. Yana bir tadqiqotchi Yu. Skaylerning ishlarida esa, vohadagi ayrim aholi maskanlariga oid ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Vohaning qadimiy tarixi va tarixiy toponimikasi bo'yicha xam xorijda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xorijiy tadqiqotlarda Jizzax vohasining qadimiy hukmdorliklaridan bo'lmish Ustrushona tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, F.Grene, E.de la Vessier boshchiligidagi fransuz olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ushbu voha hukmdorligining etnosiyosiy tarixi va vohadagi so'g'diy toponimlarga birmuncha e'tibor qaratib o'tilganligi ko'zga tashlanadi³³. Xulosa qilib aytganda, voha aholisining etnik tarixi va etnotoponimlari masalasining o'rganilishiga tarixshunoslik tadqiqotlarida yetarli darajada e'tibor berilmagan. Ammo u yoki bu ilmiy muammoning alohida qismlari tarixshunoslik bo'yicha tahlil qilingan bo'lsa-da, umumiy bir muammoning yechimiga qaratilgan alohida tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Dissertatsiyaning **"XIX asr oxiri – XX asr boshlarida JIZZAX vohasi tarixi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar kontekstida"** deb nomlangan. ikkinchi bobi uchta paragrafga ajratilgan. Ushbu bobning birinchi parografi "*Jizzax vohasining Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni*" deb nomlanib, unda Jizzax vohasining Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixida muhim o'rin tutganligi, shuningdek, vohaning qadimdan karvon yo'lining muhim tarmoqlari o'tgan makon sifatida

³² Туйчиев У. Отражение этнонимов в топонимии Булунгурского района... – С. 34-64.; Туйчиев У. Этнотопонимы и этническая география Джамбайского района // Ономастика Средней Азии. 2. – Фрунзе: Илим, 1980. – С. 46-54.; Туйчиев У. Топонимы Зарафшанской долины, возникшие в связи с расселением найманов // Материалы конференции по ономастике Узбекистана. – Джизак: 1985. – С. 24-25.; Туйчиев У. Этнонимы генеалогии этнографической группы «каракалпак» в топонимии Зарафшанской долины // Материалы конф. проф-преп. состава ТОГПИ. – Ангрен: 1980.; Туйчиев У. Топонимы, возникшие от названий топографических предметов в процессе освоения земель Самаркандской области // Тез. докл. конф. на тему: «Круглогодичное использование орошаемых земель». – Т.: 1981.; Туйчиев У. История расселения населения Самаркандского оазиса (по данным топонимии) // Россия – Узбекистан: история и современность (Ч. VI.). – М., Журнал «ЕвроАзия», 2009. – № 7. – С. 11-18.; Туйчиев У., Эргашев Ш. Зарафшон водийси кишлок ахолиси жойлашиши тарихидан // Низомий номидаги ТДПИ профессор-ўқитувчиларининг “Педагогик таълимда инновациялар: муаммолар, изланишлар ва ечимлар” мавзусидаги Республика олий ўқув юртларининг олимлари иштироқидаги XXXIII анъанавий илмий-назарий ва амалий-услубий конференцияси маърузалари. 2003 йил 22-23 май. – Ангрен, 2003. – Б. 21-23.

³³ Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura: 2002. – Р. 155–196.; Grenet F. Les «Huns» dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N. Sims - Williams) // StIr, 7. Études Irano-Aryennes offertes à Gilbert Lazard. – Paris: 1989. – Р. 165-184.

geosiyosiy ahamiyatga ega bo‘lganligi tahlil etilgan. O‘zbek xalqining etnik tarixi ham ushbu hududlar tarixi bilan bevosita bog‘liq. Siyosiy chegaralar bo‘lishiga qaramasdan, ikki davlat tarkibidagi aholi o‘zaro doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganliklari yoritilgan.

Ma’lumki, Buxoro amirligining hududida jami 27 ta beklik bo‘lib, ularda asosan o‘troq, yarim ko‘chmanchi, qisman ko‘chmanchi tarzda hayot kechirgan aholi yashagan. Jizzax vohasining Buxoro amirligi tasarrufiga o‘tishida diniy ulomalarning ham xizmati katta bo‘lgan. Amirlik tarkibidagi bekliklarda beklarning vazifasi asosan soliqlarni yig‘ish va harbiy askar to‘lash bo‘lgan. Jizzaxning amirlik tarkibiga kiritilgandan so‘ng Jizzax, Peshag‘or, Zomin, Yom, O‘ratepa, Xo‘jand qal’alariga kim egallik qilishi masalasini din peshvolari va urug‘ning oqsoqollari bilan kelishilgan holda hal etilgan. Chunonchi, bu vaqtgacha bu beklik tarkibidagi qalalar va viloyatlarni Fozilbiy yuz avlodlari goh Buxoro, goh Qo‘qon xonlari bilan murosa qilgan holda mustaqil boshqarib, ikki orada to‘g‘ridan-to‘g‘ri jang bo‘lishiga yo‘l qo‘ymay kelayotgan edi. Muhammadrahim devonbegining o‘limi bilan bu hol yakun topdi. “Tarixi Farg‘ona” asarida qayd etilishicha: “*Mushori Ilayx Muhammad Alixon Xo‘qand ila Buxoro o‘rtasida Lashg‘ar nom qal‘a xususida Buxoro Amiri Nasrulloh bahodir ila o‘rtalarida burudat tushub, Amir bunga bir go‘shmol bermak bo‘lib, Muhammad Alixon otasining mankuxasini oldi. Balki haromni halol dedi. Kofir bo‘ldi, necha-necha bidatlarni joriy qildi deb, tadib qilmoqda, Xo‘qandga kelmoqda edi*”³⁴. Sayyid Mansur Olimiyning “Buxoro – Turkiston beshigi” asarida ham: “*Amir Nasrullo hijriy 1248-yilda Qo‘qon xonligiga hujum qilib Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jandni ishg‘ol etdi*³⁵” degan ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Jizzax, Zomin, O‘ratepa kabi bekliklar va ularning hududlariga katta urg‘u bergen Buxoro va Qoqo‘n xonlari o‘zaro bu hududlar uchun doimiy kurashlar olib borganligini kuzatamiz. Mang‘itlar Buxoro amirligi hususan Jizzax vohasida kechgan siyosiy-etnik jarayonlarda yetakchi rol o‘ynagan urug‘lardan biri sifatida o‘zini namoyon qilgan. Bu urug‘ning yetakchilari o‘zlariga doimiy ittifoqchi tayanch sifatida vohada yuz, qirq, saroy uru‘glarinining oqsoqollariga tayangan. Ma’lum bir vaqt Jizzax vohasida hokimiyat mang‘it urug‘i vakillari qo‘lida bo‘ganligi manbalarda keltirib o‘tiladi. Nasrullo Buxoro taxtiga ega bulgandan keyin, (1826-1860), Jizzax hokimi Muhammad Rahim otaliqni Buxoroga chaqirtirib oladi va uning o‘rniga mang‘it G‘ozibek Miroxurni xokim sifatida tayinlaydi. Avvalgi Jizzax hokimi Muhammad Rahim otaliqning ko‘rsatmasiga binoan Jizzax aholisi G‘ozibek Miroxurni Jizzaxga kiritishga qarshilik qiladi. Bundan g‘azablangan amir Nasrullo Jizzaxga qo‘shin tortadi va uni vayron qilib Hakim dodxohni hokim qilib tayinlaydi. Bu vaqtga kelib Jizzax vohasi hududlariga mang‘it urug‘i vakillari kelib joylashadi va ushbu urug‘ vakillari hokimiyatning tayanch kuchiga aylanadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “*Rossiya imperiyasi bosqinidan so‘ng Jizzax uyezdidagi ma‘muriy-hududiy o‘zgarishlar*” deb nomlangan. Turkiston o‘lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng, mintaqani boshqarish maqsadida mustamlaka ma‘muriyati tomonidan bir qator nizom va yo‘riqnomalar

³⁴ Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. Наширга тайёрловчи ва изохлар муаллифи Улугбек Далимов, Нурбой Жабборов, – Т.: “Маънавият”; 2005. – Б.13.

³⁵ Сайид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. – Бухоро: 2004. – Б. 35-41.

ishlab chiqildi. Ushbu me'yoriy hujjatlar mintaqani ma'muriy-hududiy jihatdan qayta tashkil etish masalalarini o'z ichiga olgan. Xususan, 1865-yil 6-avgustda qabul qilingan "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida"gi vaqtinchalik Nizom ushbu hududda qabul qilingan birinchi normativ hujjat sifatida faoliyat ko'rsatishning huquqiy asosini belgilab bergen. 1866-yilda Jizzax va Xo'jand shaharlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida Jizzax vohasi imperiya tarkibiga qo'shildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa Jizzax uyezdi tashkil etilib, uning tarkibiga 20 dan ortiq volost va ko'plab ovul-qishloqlar kiritildi. 1867-yilgi Nizomga muvofiq, dastlab Jizzax uyezdi Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. Uyezd Jizzax va Zomin kabi ikkita rayondan iborat bo'lib, umumiyligi maydoni 632 kvadrat mil³⁶ni tashkil etgan³⁷. Manbalarga ko'ra, uyezd shimolda Chimkent va Toshkent uyezdlari, sharqda Xo'jand uyezdi, janub va g'arbda esa Buxoro amirligi tarkibidagi Samarqand viloyati bilan chegaradosh bo'lgan³⁸.

1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi yangi Nizomga muvofiq, Jizzax uyezdi va Xo'jand uyezdining Savot volostlari tashkil etildi. Ushbu uyezdlar Zarafshon okrugi asosida shakllantirilgan Samarqand viloyati tarkibiga kiritildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Jizzax uyezdi maydoni jihatidan Samarqand viloyatidagi eng katta uyezd bo'lib, uning umumiyligi maydoni 45 ming kvadrat verstni tashkil qilgan³⁹. Mazkur Nizomning 61-bandiga muvofiq, har bir uyezd hududi uchastkalarga bo'lingan bo'lib, ularning taqsimlanishi uyezdnинг maydoni, aholisi va boshqa mahalliy sharoitlarga asoslangan holda amalga oshirilgan⁴⁰. Zomin uchastkasi aholisi, volostlar soni va maydoni jihatidan Jizzax vohasidagi eng kichik uchastka hisoblangan. U jami 5 ta volostdan iborat bo'lib, uning maydoni Yangiqo'rg'on uchastkasi maydoniga teng bo'lgan⁴¹. Nizom va yo'riqnomalarda volostlarni tashkil etishda aholining turmush sharoiti, shuningdek hovli yoki o'tovlar sonini hisobga olish talab qilingan⁴².

Jizzax vohasi aholisining xo'jalik tarzi turlicha bo'lgan, bu holat o'lkada tashkil etilayotgan mamuriy birliklarning soniga ham o'z tasirini o'tkazmay qolmagan. Jumladan, vohada yashayotgan aholi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o'troq va yarim o'troq ko'chmanchi holatda hayot kechirishgan⁴³. Vohadagi o'troq aholi yashaydigan volostlar 1000 dan 2000 gacha hovlidan tashkil topgan bo'lsa, yarim o'troq ko'chmanchi aholi yashovchi volostlarda o'tovlar soni viloyat boshqarmasi tomonidan belgilanar edi. Shu bilan birga, Nizomga ko'ra, bunday volostlarda o'tovlar soni ikki mingdan oshmasligi lozimligi qat'iy norma sifatida

³⁶ Узунлик ўлчови. 1 мил 1609,34 метр.

³⁷ Туркестанский сборник. Том 59. – С.120.

³⁸ Туркестанский сборник. Том 112. – С.90.

³⁹ Пален К.К. Уездное управление. – Санкт-Петербург, 1910. – С.11.

⁴⁰ Ҳужжатлар таҳлилидан кўринадики, маҳаллий шароит деганда кўпроқ аҳолининг ер ва сувдан фойдаланиш масаласи етник мансублиги назарда тутилган. Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 9.

⁴¹ Боғдан участка пристави аҳолисининг сони 91212 та ва хонадонлар сони 11714 та бўлган бир вактда Янги Кўргон участка приставида 87159 та аҳоли яшаган ҳамда 11486 та хонадон мавжуд бўлган. (Список населенных мест Самаркандской области. (По сведениям 1904 и 1905 гг.). – Самарканд, 1906. – С. 67-101).

⁴² Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С.15.

⁴³ Алманов К. XIX аср охри – XX аср бошларида Самарқанд вилояти Жиззах уездининг демографик манзараси. <https://science.nuu.uz/> O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022, [1/6] issn 2181-7324

belgilangan⁴⁴. Shuningdek, vohada aholi manzilgohlarini barpo etishda aholining ho‘jalik turmush tarzi inobatga olinib ularning qishgi joylashuv o‘rniga alohida etibor berilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi Jizzax uyezdi ko‘p millatli hudud bo‘lib, uning ma‘muriy birliklari etnik tarkibining xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Qoratosh, Rabot, O‘zbek, Yom, Zomin, Yangiyo‘rg‘on, Nakrut, Savruk, Sangzor, Xotchamuqur, Chashmiob, O‘smatqatortol va Bog‘don hududlarida asosan o‘zbeklar yashagan. Sintobda tojiklar ko‘pchilikni tashkil qilgan bo‘lsa, Otaqo‘rg‘on, Qizilqum, Qo‘rg‘ontepa, Pistalitog‘, Ko‘ktepa va Chordorada qirg‘iz qozoqlar hukmron etnik guruh bo‘lgan. XX asr boshlariga kelib yer to‘grisidagi nizomga muvofiq qayta tuzib chiqilgan Jizzax uyezdi tarkibida quyidagicha ma‘muriy birliklar – volostlar bo‘lgan:

1.Qo‘rg‘ontepa, 2.Qizilqum, 3.Otaqo‘rg‘on 4.Pistalitov, 5.Chordara, 6.Sintob, 7.Forish, 8.Bog‘dan, 9.Ko‘ktuba, 10.Nakrut, 11.Savruk, 12.Xotchamukur, 13.Chashmaob, 14.O‘zbek, 15.Rabot, 16.Zomin, 17.Yam, 18.Yangiyo‘rg‘on, 19.O‘smat-Qatortol, 20.Sangzar, 21.Qoratosh.

Ushbu ma‘muriy birliklarning tashkil etilishi va nomlanishi vohada ancha yillardan beri yashab kelayotgan etnoslar bilan bog‘liq holda tuzilgan. Bu ma‘muriy birliklarda yashovchi aholining turli qishloq, ovul, mahallalarga bo‘linishida esa aholining etnik mansubligi va ilgaridan beri qo‘llanilib kelayotgan nomlar aks etganligini milliy arxivda saqlanayotgan manbalar orqali xam ko‘rish mumkin⁴⁵. XX asr boshlariga kelib, Jizzax uyezdi 112 ta qishloq va ovul jamoasiga bo‘lingan bo‘lib, ulardan 77 tasi qishloq jamoasi, qolgan 35 tasi esa ovul jamoasi hisoblangan. Ushbu jamoalarda jami 896 ta aholi punkti (shahar, qishloq va ovul) mavjud bo‘lgan⁴⁶. Mazkur aholi punktlarining nomlari, asosan, o‘zlarining urug‘ nomlari bilan atalgan, shuningdek, hududning geografik xususiyatlari yoki aholi xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan⁴⁷. Qishloqlarning nomlari, ko‘pincha, ularning tarixiy nomlarini saqlab qolish orqali atalgan bo‘lsa, ovul jamoalarida bu masala biroz boshqacha hal qilingan. Ko‘chmanchi aholi odatda o‘z qishloq yoki yozgi manzillarini alohida nom bilan atamagan, chunki bu joylarda ular doimiy manzilgohlar qurmagan. Bunday ovullar ko‘pincha joylashuv hududi urug‘ yoki etnos nomi bilan, chorvasidagi tamg‘a nomi bilan yoki turli to‘plarning nomi bilan atalgan holatlar ham vohada uchrab turgan⁴⁸.

Jizzax vohasining bir qancha ma‘muriy birliklarga bo‘linishi ushbu vohadagi aholining umumiy tartiblarga itoat etishida bir qancha muammolarni vujudga keltirgan. Bu kabi holatlarning mintaqasi aholisining etnomadaniy jarayonlariga, hayotiga nafaqat siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmaganligi tadqiqot ishida tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida voha

⁴⁴ Положение об управлении Туркестанского края. Том II. Часть 2. – Санкт-Петербург, 1886. – С. 11.

⁴⁵ ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 4-иш, 1-варак.

⁴⁶ Список населенных мест Самаркандской области. (По сведениям 1904 и 1905 гг.). – Самарканд, 1906. – С. 67-101.

⁴⁷ Qarang ilovalarga.

⁴⁸ Dala yozuvlari. Jiz vil.Baxmal tumani Chubor, Qora ,Holtoy, O‘damali, G‘allaorol tumani Chuvalloq, Zomin tumani, Pishog‘or, Boymoqli qishloqlarida yashayotgan keksa oqsoqollar bilan olinb borilgan suhbatlar.(Zafar Imomuradov, Ergash Qilichboev, Saydulla Almanov, Akrom Kattabekov, Abdug‘ani Baratov va b.)

aholisi madaniy hayotining bazi xususiyatlari” deb nomlanadi. Ushbu paragrafda XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Jizzax va uning atroflarida hududlar aholisining xo‘jalik turmush tarzi va madaniy hayotining ayrim xususiyatlari tahlil qilinadi. Voha aholisining asosiy turmush tarzi dehqonchilik va chorvachilik asoslanganligi ko‘rsatilib, bu xolat ayniqsa madaniy hayotning ajralmas bir bo‘lagi xisoblangan ananaviy taomlari misolida taxlilga tortilgan. Vohada qadimiy turkiy aholi maskanlaridan tashqari Dashti Qipchoq hududlari orqali kirib kelgan chorvador qavmlarining va rossiyalik aholi qatlamlarining doimiy o‘z manzilgohlari paydo bo‘la boshlashi natijasida mintaqada o‘ziga xos taomlanish madaniyati paydo bo‘ladi. Umuman olganda, har bir xalq jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida o‘ziga xos milliy taomlarni yaratgan. Shubhasiz, har qanday etnosning an'anaviy taomlari ushbu xalqning turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, milliy va diniy qarashlari hamda mahalliy tabiiy sharoitlarga mos holda rivojlanib borgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Jizzax vohasida chorvachilik va dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan o‘zbek urug‘lari bilan bir qatorda turli qavm va elatlarning aholisi o‘zlarining ehtiyojidan kelib chiqib turli hil, yoz oylarida iste’mol qilish uchun, oson va tez tayloranadigan hamda iqlimga mos keladigan, *bahor* oylarida (ichak uzildi) esa turli vitaminlarga boy taomlar, qahraton *qish* oylarida esa alohida to‘yimli, uzoq vaqt qorinni to‘q tutadigan, inson tanasini issiq tutadigan taomlar taylorashga harakat qilishgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasi aholisi etnik tarkibi** deb nomlanadi. Bobning birinchi paragrafi “*Voha aholisining etnik tarkibi va joylashuv xususiyatlari*” deb ataladi.

Voha aholisining soni va tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar turlicha bo‘lganligi uchun 1897-yildan to 1926-yilgacha bo‘lgan aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga, arxiv va statistik manbalarga tayanib bazi bir hulosalarni berish mumkin. Jizzax uyezdi 1868-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ruslar bosib olgunga qadar Buxoro amirligining tarkibiy qismi bo‘lgan amirlik qo‘shinlarining turarjoyi sifatida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu haqda rus tadqiqotchisi N.V.Xanikov 1841-yilda o‘lkani ruslar bosib olishidan oldin yozilgan “Opisanie Buxarskogo xanstva” nomli asarida to‘xtalib o‘tgan⁴⁹. Bu asarda muallif amirlikda jami o‘zbeklar 28 ta urug‘lardan tashkil topgan bo‘lib, ular amirlikning asosiy ko‘pchilik aholisini tashkil etganligini yozib qoldiradi. Amirlikning Samarqand bekligi va uning Yer-yayloq tumani hududida o‘zbek urug‘laridan nayman, qang‘li, qipchoq, qo‘ng‘iroq, xitoy, sayot, qiyot, chig‘otoy, durmon, ushun, olchin, ming, qirq, yuz, qoraqalpoq, saroy, qirg‘iz, turk, mang‘it, bahrin kabilar yashashini ko‘rsatib o‘tgan. U Jizzax va Nuroto oralig‘ida qoraqalpoqlar yashaganligini alohida ta’kidlagan⁵⁰. Yana bir muallifi V.Vyatkinning tadqiqotlariga ko‘ra Yer-yayloq bugungi Jizzax vohasi hududlaridagi O’smat atrofi va Sangzor daryosining yuqori va o‘rta oqimlaridagi hududlardir⁵¹. Demak bundan shu narsa anglashiladiki bu vaqtarda vohada yashayotgan o‘zbek urug‘larining soni 10 dan oshiq bo‘lgan. Jizzax uyezdi dastlab tashkil topgan vaqtida

⁴⁹ Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб.: Б. И., 1843. – С.58.

⁵⁰ Qarang o‘sha manba..

⁵¹ Вяткин В. материалы по исторической географии самаркандского вилаета // справочная книжка самаркандской области. Вып. VII. – Самарканд, 1902.

Sirdaryo viloyati tarkibida bo‘lib⁵², 1886-yilgi nizom asosida Samarqand viloyati tarkibiga o‘tkaziladi⁵³. Jizzax uyezdi Samarqand okrugi tarkibidagi aholisi soni va etnik xilma- xilligi bo‘yicha Samarqanddan keyingi o‘rinda turgan⁵⁴. Samarqand okrugida aholi soni bo‘yicha ma’lumotlarda Samarqand uyezdida 342 197 nafar aholi istiqomat qilgan bo‘lsa, Jizzax uyezdida 222 683 nafar aholi istiqomat qilgan⁵⁵. Hududning kattaligi jihatdan okrugdagi eng kattasi Jizzax uyezdi hisoblangan. Aholining joylashuvi har bir metr kv ga 8.63 tadan aholi ancha siyrak joylashgan bo‘lgan. Aholining uyezd markazidagi ulishi ham viloyatdagi tumanlar ichida keyingi o‘rinlarda turgan. Bu ma’lumot va hisobotlarning ko‘pchiligi asosan bir xil tarzda tuzib chiqilgan va bir-biridan ko‘chirilgan bo‘lishining ehtimoli yuqori. Biz tadqiq qilayotgan davrda voha aholisi va uning etnik tarkibi bo‘yicha ma’lumotlarning turlichaligi ham bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bizningcha, voha aholisi, uning etnik tarkibini mahalliy va rus tadqiqotchilarining ma’lumotlari, aholini ro‘yxatga olish tadbirlaridagi ma’lumotlar, statistik raqamlar orqaligina tahlil qilib, bu muammolarga yetarli darajada oydinlik kiritish mumkin. Yangi etnik birliklarning voha aholisi tarkibida paydo bo‘lishi vohada o‘ziga xos etnik jarayon hukm surganligi bilan ifodalanadi. 1926-yilgi raqamlarga qaralganda Jizzax uyezdi va uning barcha hududlarida jami 266999 kishi istiqomat qilgan ularning etnik tarkibiga qaraydigan bo‘lsak, 181961 nafarini o‘zbeklar, 12901 nafarini tojiklar, 3096 nafarini qozoqlar, 836 nafarini ruslar, boshqa millat vakillari esa 8205 kishini tashkil etgan⁵⁶ (*1897-yilgi aholi tarkibi bilan solishtirilganda aholi soni o‘sgan*).

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, Jizzax uyezdi tarkibidagi 21ta volostlarning aholisining soni etnik tarkibi turlicha bo‘lgan. Milliy arxivda saqlanayotgan ma’lumotlarga qaralganda uyezdning Jizzax uchastkasi aholisi soni jami 17.600 nafar, Zomin volostida 34.415 nafar, Yangiqo‘rg‘on volostida 25.665 nafar, Bog‘don volostida 35.885 nafar, Qo‘rg‘ontepa, Qizilqum, Ataqa‘rg‘on Pistalitov volostlarida 27.650 nafar aholi istiqomat qilgan bo‘lib bu aholining etnik manzarasi turlicha bo‘lgan⁵⁷. Bu volostlarda yashayotgan aholining tarkibi bo‘yicha qilingan tadqiqotimizga ko‘ra volostlarda turli urug‘ va etnoslar bir biridan farq qilgan masalan *qirqlar* uyezdning Yangiqo‘rg‘on volostida ko‘p bo‘lga bo‘lsa yuz urug‘i, Zomin va Yom da, O‘smat qatortolda *turklar va barloslar*, Zomin shahrida *qayirma, qorasirkali*⁵⁸, Sangzor va Qoratoshda *yuz* va *qirqlar*, Forishda *turkman*, Pistalitovda qirg‘iz va qozoqlar, Bog‘don va Sintobda *turkman* va tojiklar ko‘pchilikni tashkil etganligiga guvoh bo‘ldik⁵⁹. Shuningdek, urug‘lar va etnoslar miqyosida aholi soniga qarab chiqish jarayonida ma’lum bir volost hududida bir xil urug‘ vakillari ko‘pchilikni tashkil etishi, masalan (*Yangiqo‘rg‘onda qirq urug‘i, Nakrutda yuz urug‘i vakillari ko‘proq yashagan*.) yana qaysidir volostlarda umuman

⁵² Сирдарё вилояти // Катта Россия энциклопедияси, 35 том (ру), – Москва. 2004-2007.

⁵³ Самарканд вилояти // Катта Россия энциклопедияси, 35 том (ру), – Москва., 2004-2007.

⁵⁴ Первая Всеобщая перепись населения Российской империи 1897г, Самаркандская области. – СПб., 1905. – С.26.

⁵⁵ Qarang: o‘sha joyda.

⁵⁶ Всесоюзный перепись населения 1926 г. Т.XXV. Узбекская ССР. ЦСУ. СССР. – М., 1928. – С. 145-149.

⁵⁷ ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 29-иш, 19-варак.

⁵⁸ ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 1100-иш, 4-варак.

⁵⁹ O‘sha manbaga qarang.

teskari jarayonni kuzatdik⁶⁰. Bu kabi statistik va arxiv ma'lumotlari XX asr boshlarida Jizzax vohasida yashagan aholining tarkibi ancha murakkab bo'lganligin ko'rsatadi. Bu davrda Jizzax vohasida asosan o'ndan oshiq qabila vakillari xususan, xitoy-yuz, qirq, qang'li, turkman, nayman va saroy, qipchoq qabilasiga mansub aholi vakillarining urug' va shahobchalarining vakillari ko'p yashagan. N.M.Virskiy mahalliy yerlik aholi Jizzax shahrining Saraylik va Nayman qishloqlari oralig'ida, rus manzilgohidan 4 veyorst masofada yashagan, deb ma'lumot berib o'tadi⁶¹. Ularning uylari bir tekis tartibsiz qurilgan, jami 20 ta tor ko'cha bo'ylab esa 2852 ta xonodon bo'lgan, deb qayd o'tib o'tadi. Mahalliy musulmonlar o'zbeklarning jami soni 14260 nafarni tashkil etgan, shulardan 7500 nafarini erkaklar, ayollar esa 6760 nafarni tashkil etadi, deb ma'lumotlar qoldirgan. Uning keltirib o'tgan ma'lumotlari 1897-yildagi aholini ro'yxatga olish qaydlarida keltirilgan ma'lumotlarga yaqin keladi, ammo bir xil emas. Bizningcha, bu jarayonlarda bunday chalkashliklarning bo'lishiga o'zaro ichki muhit va aholi migratsiyasi ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Keyingi aholining etnik tarkibi va soni bo'yicha qilingan tadqiqotlarga nazar solinsa ham voha aholisining tarkibida o'zgarishlar mavjudligini ko'ramiz. Shuningdek, aholining uyezd tarkibidagi etnik birliklari turli xalqlar hisobiga birmuncha ko'paygan, ma'lum bir etnoslarning esa, aksincha, kamayganligini e'tiborga olish zarurdir. Etnoslar hisobiga ortib borganlar asosan rusiyabon xalqlar bo'lgan, ularning soni dastlab yuzlik sonlarda bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ular *minglik* sonlarga aylangan. Bu kabi omillar uyezd aholisi tarkibining turli etnoslar va etnik birliklar asosida doimiy oshib borishiga turki bo'lgan⁶².

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "*Vohada o'zbeklarning shakllanish tarixini yoritishda etnotoponimlar*" deb nomlanadi. Jizzax vohasi aholisining, xususan, bugungi kunda voha aholisining asosiy ko'pchiligin tashkil qiluvchi o'zbeklarning etnik shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni qamrab olgan. Voha aholisining etnik tarkibiga qaraganimizda ularning asosiy ko'pchiligin 92 bovli o'zbek urug'lari va ularning turli to'plarga bo'lingan qatlamlari tashkil qilgan. Vohadagi XX asrdagi joy nomlari tadqiq qilib qaralganda, o'zbek etnosi va uning tarkibidagi turli urug'-aymoq nomlari bilan bog'liq aholi punktlarining ko'pligi ko'zga tashlanadi.

Jizzax vohasidagi janubiy (Baxmal, G'allaorol, Zomin, Forish, Yangiobod) tumanlardagi joy nomlarining katta qismi etnotoponimlardan iboratligi, shimoliy tumanlarda esa (ya'ni Jizzax cho'li o'zlashtirilgandan so'ng tashkil etilgan) antroponimlar, agroonimlarga xoslangan nomlar ko'pchilikni tashkil etganligi, bu joy nomlarining katta qismini esa turkiy etnik nomlar tashkil qilganligi aniqlangan⁶³. Bu kabi holatlar turli tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Jizzax

⁶⁰ Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск X. – Самарканд, 1912. – С.25.

⁶¹ Вирский Н.М. Очерк Яны-Курганской волости Джизакского уезда Самаркандской области / Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск X. – Самарканд, 1912. – С. 25.

⁶² Всесоюзный перепись населения 1926 г. Т. XXV. Узбекская ССР. ЦСУ. СССР. – М., 1928. – С. 145-149.

⁶³ Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана (по данным топонимии Зарафшанской долины): Автореф. канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АНРУз. 1990. – С. 15-21.; Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Т.: 2018. – С. 144-184, 154.; Ҳакимов Қ. Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иктисодий, географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида): География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент; 2010. – Б.14-15.

vohasida an'anaviy “92 boqli o‘zbek urug‘i” ro‘yxatlarida keltirilgan 90 dan ortiq urug‘ nomlaridan katta bir qismining deyarli 50% i saqlanib qolganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, o‘zbek urug‘lari ro‘yxatiga kirmagan, biroq ro‘yxatdagi muayyan bir urug‘ tarkibidan o‘rin olgan yana o‘nlab urug‘ nomlarining bugungi kunda etnotoponimga aylangani ko‘zga tashlanadi. Masalan, “92 boqli” ro‘yxatidan joy olmagan Achamayli, Tortuvli, Tuyoqli, Sirgali, Moltop, Shaybek, Chuvulloq, Qo‘shtamg‘ali, Jilontamg‘ali, Ilonli, Chayonli, Erganakli, Chubar, Holtoy, O‘damali, So‘loqli, Molkush, Qoraqo‘yli kabi etnotoponimlarga vohaning bir qator tumanlarida duch kelish mumkin⁶⁴. Shu o‘rinda Achamayli yoki Ochamayli shaklida uchraydigan etnotoponimning bugungi kunda mamlakatimizning bir necha viloyatlarida mavjudligini aytib o‘tish zarur.

Tadqiqot uchinchi bobining uchinchi paragrafi “*Vohadagi tojik, qirg‘iz, qozoq, va boshqa xalqlarning shakllanishini o‘rganishda toponimlarning o‘rni*” deb nomlanadi. Jizzax mintaqasida aholining etnik tarkibi turlicha bo‘lib, asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etadi. O‘zbeklardan so‘ng son jihatdan tojiklar, qirg‘izlar, qozoqlar va boshqa etnoslar ketma-ket o‘rinlarda turadi. Voha aholisining katta qismini tashkil qiladigan turkiy tilli qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, tatarlar va forsiy xalqlarga mansub bo‘lgan tojik, eroni kabi etnoslar turli davrlarda vohada o‘troqlashib, vohaning mahalliy aholisi bo‘lib ketgan⁶⁵. Jizzax vohasida yashayotgan turli etnoslar ichida tojik etnosining ham tutgan o‘rni alohida ajralib turadi. Vohadagi mahalliy aholining qadimgi davrlardagi tili asosan sug‘diy til bo‘lganligi qadimiy Ustrushona va uning rustoqlari to‘g‘risida olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan⁶⁶. Shuning uchun bazi tadqiqotchilar mintaqadagi aholining etnik tarkibida tojiklar, ba’zan esa “tojik tilli” aholi deb ataladigan etnik arab va boshqa forsiylashgan aholini uchrashi ham kuzatilishini ta’kidlaydilar⁶⁷.

Paragrafda Jizzax vohasi aholisining etnik tarkibi va etnotoponimik tarixini o‘rganishda Jizzax va Samarqand shahri eroniylarining dini, urf-odatlari xususidagi ma’lumotlar ba’zi rus etnograflari, sharqshunoslari va tarixchi olimlari ilmiy tadqiqotlarida keltirib o‘tilganligi tahlil etiladi. F.D.Lyushkevich, O.A.Suxareva, A.D.Grebenkin, I.Zarubin, B.X.Karmishevalarning tadqiqotlarida Samarqand okrugi va uning uyezdlaridagi eroniylarning turmush tarzi, madaniyati, ularning kelib chiqishi to‘g‘risida ba’zi ma’lumotlar uchraydi⁶⁸. A.D.Grebenkin “Русский

⁶⁴ Туйчиев У. История расселения народов Узбекистана... – С. 15-21.

⁶⁵ Алманов Қ. Жizzax воҳасида тоҷик этноси вакилларининг жойлашуви ва этномаданий ҳусусиятлари “Марказий Осиё тарихи ва маданияти мавзусидаги” тарих фанлари доктори, профессор Мавлонов Ўқтам Махмасобировичнинг 60 йиллик юбилейи муносабати билан 2022 йил 19 ноябрда ўтказилган ҳалқаро илмий-амалий анжумандаги тӯплам. – Т.: – Б. 319-323.; Алманов Қ. Жizzax воҳасида кирғиз этноси вакилларининг жойлашуви ва этномаданий ҳусусиятлари “Марказий Осиё цивилизация тизимида Ўзбекистон тарихи ва маданияти” мавзусидаги 2022 йил 14 майда ўтказилган Ҳалқаро илмий-амалий конференция материаллари тӯплами. – Қарши: – Б. 230-235.

⁶⁶ Алманов Қ. Ғарбий Турк ҳоқонлиги даврида Уструшона т.ф.ф.д дисс автореферати. – Қарши: 2021. – Б. 29-30.

⁶⁷ Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Б. 158, 207.

⁶⁸ Люшкевич Ф.Д. Некоторые особенности этнического развития группы ирони в Узбекистане. Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М., “Наука”, 1980.; Люшкевич Ф.Д. Этнографическая группа ирони. Занятия и быт народов Средней Азии. – Л., 1971.; Сухарева О.А. Бухара XIX – начало XX века. – М., 1966.; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Т.: 1958.; Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зерафшанского округа в сб. “Русский Туркестан”. 1872.; Гребенкин А.Д. Мелкие народности. – М., 1958; Зарубин И. Население Самаркандской области. – Л.,

Туркестан” то‘plamidagi “Таджики”, “Мелкие народности Зерафшанского округа” мақолаларida Samarqand okrugidagi uyezd va volostlardagi eroniylar tarixi, xo‘jaligi haqida bir qator ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Tojik etnosi yoki uning tili bilan bog‘liq toponimlar Jizzax o‘lkasida ham O‘zbekistonning turli mintaqalarida uchragani kabi qadim davrlardan uchraydi. Jizzaxning tog‘li va cho‘l hududlarida yangi tashkil etilgan tumanlarida ham yoki Jizzax vohasidagi tog‘li tumanlardagi ko‘pgina joy nomlarida tojikcha -on (mas. Xuroson, Ardashon, Qarluqon, Tojikon, Qipchoqon, Vadigon, Aralon, O‘zbekon, Qalmoqon, Sarayon va h.k.), -ho (mas. Tojiko, Qalmoqo, Arabo, Duobo, O‘zbeko, Qarluqo va h.k.) kabi ko‘plik yasovchi topoformantlar⁶⁹ bilan birgalikda -zor, -iston, -ob, bolo “yuqori”, poyon “quyi”, -gar, -do‘z kabi aholi turarjoylarining geografik o‘rni yoki aholi kasb-kori bilan bog‘liq ko‘plab joy nomlari vohaning tog‘li tumanlarida sezilarli o‘rinni egallaydi⁷⁰. Masalan, Novqa, Tagob, Chamanzor, Yuqorinovqa, Sovungar, Zargar va h.k. Bu kabi holatlar XX asr toponimikasiga ham sezilarli o‘z tasirini o‘tkazgan. Ayniqsa, bunday holatlar Forish tumanining turli qishloq va ovullari Jizzax shahri mahallalari, Yangiobod tumanidagi bir qancha qishloqlar, Baxmal, Zomin tumanidagi bir qator aholi maskanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Jizzax shahridagi bir ikkita mahalla va guzarlar Forish, G‘allaorol, tumanidagi qishloq va aholi maskanlari bo‘yicha XX asrning ilk yarmigacha yig‘ilgan statistik ma’lumotlar va etnologik tadqiqotlarda ushbu vohadagi bir qancha manzilgoxlar aholisining katta qismi tojik tilli aholidan tashkil topganligi, ularning ancha ko‘pchiligi tojik tilida so‘zlashsada, o‘zlarini o‘zbek deb hisoblovchilari bo‘lganligi yana bir toifa vakillari esa tojik tilida so‘zlashsa-da, biroq etnik mansubligi tojik yoki o‘zbekligi aniqlanmagan aholi vakillari istiqomat qilishgan bo‘lgan.

Etnografik dala tadqiqotlari davomida biz vohadagi tojiklar yashaydigan qishloqlarda tojiklarning bir qancha urug‘ va turli bo‘laklarga bo‘linib yashashini kuzatdik. Masalan, Forish tumanidagi Porasht, O‘xm, Hoyat, Mocharm, Sintob, Sob, Ech qishloqlarida, shuningdek, Yangiobod tumanidagi Chakand qishlog‘ida G‘allaorol tumanidagi Sarbazor qishlog‘ida, Baxmal tumanidagi Tojik qishloqda yashovchi tojiklar to‘g‘risida va ularning soni va turli urug‘ va bo‘laklarga bo‘linishi to‘g‘risida arxiv va statistik ma’lumotlar mayjud. Qirg‘iz etnosi va uning turli urug‘larining vohada doimiy turar joylar qilib yashay boshlagan davri bizningcha XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lsa kerak. Vohadagi Turkiston va Morguzar tog‘larining yon bag‘irlari va uning atroflaridagi qirg‘iz etnosi bilan bog‘liq bo‘lgan aholi maskanlariga, xususan, Baxmal tumanidagi Duvlot, Shaybek, Jadik, Muzbuloq, Sarikamar, Sovuqbuloq, Yuqori va Pastki Shaybek, Tentak, Qoramo‘yin, Kayish, Qorasuv, Abay shuningdek Zomin tumanidagi Suvlisoy, Usmonisoy, Sorikamar, Ettikechuv kabi qishloqlarga bundan chamasi 200 yillar avval, qirg‘izlarning kelib o‘rnashishi dastlab doimiy bo‘lmagan ular kelib ketib o‘z

1926; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., “Наука”, 1976.

⁶⁹ Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Б. 191-192.

⁷⁰Ҳакимов Қ. Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иктисодий географик хусусиятлари. (Жиззах вилояти мисолида) География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. 2010. – Б.14-15.

chorvasini boqish yaylov sifatida foydalangan bo‘lgan. Qirg‘iz etnosi va urug‘lari bilan bog‘liq ma’lumotlarni bergan axborotchimizga ko‘ra, vohadagi qirg‘iz etnosining asosini (o‘zagini) jetti uruvdan taragan quyidagi *manoq*, *oriq*, *kutka(kutike)*, *qutoli*, *ovoy*, *tolli*, *qashqa*, *chopon*, kabi urug‘ va to‘plar tashkil etgan. Jizzax vohasining tog‘li tumanlarida, xususan, vohadagi Turkiston, Morguzar, Nurato tog‘ yonbag‘rlaridagi bir qator tumanlarda ko‘pchilikni tashkil etadi. Vohada turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub ko‘chmanchi o‘zbeklar (shu jumladan, “o‘zbek-turkmanlar”), qozoq va qirg‘izlar bilan bog‘liq joy nomlarining paydo bo‘lishida esa o‘rta asrlardagi, xususan, Shayboniyalar va o‘zbek xonliklari davri asosiy o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerak, XIX-XX asrlarda Jizzax vohasida turkiy bo‘lgan turkman, qirg‘iz, qozoq va qoraqalpoqlar bilan aloqador o‘nlab aholi maskanlari, xususan, etnotoponimlar mavjud bo‘lsa-da, ularning katta bir qismi aholisi bu paytda o‘zini “o‘zbek” deb bilishgan. Shuningdek bu davrda vohada turkiy bo‘limgan eroni, tojik, arablar bilan bog‘liq bo‘lgan aholi manzilgohlari ham talaygina uchrashi mintaqaning o‘ziga xos etnomadaniy jarayonlarda faol bo‘lganligidan dalolat beradi. Tadqiqotning to‘rtichi bobi **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasining toponimik manzarasi** Ushbu bobning “*Voha etnotoponimlarining o‘ziga xosligi va uning qiyosiy tahlili*” deb atalgan birinchi paragrafida Jizzax vohasida qadimdan mavjud joy nomlari bilan bir qatorda, turli tarixiy davlarda o‘lkaga kirib kelgan etnoslar bilan bog‘liq joy nomlari ham paydo bo‘la bo‘shlashi natijasida voha etnotoponimlarining o‘ziga xos qiyofasi shakllanadi. Ayniqsa, bu jarayon XIX asr oxirgi choragi va XX asrning birinchi choragida juda kuchaygan. Jizzax vohasidagi joy nomlari bilan tanishib chiqish shuni ko‘rsatdiki, vohada qadimiy Dizak (Jizzax), Savot, Zomin, Pishog‘ar, Forish, Yom, Ravot, Xovos, Sarmich, O‘smat (Usmand), Abdal, Arja kabi yirik aholi maskanlarining nomi rivojlangan o‘rta asrlardan bugungi kungacha deyarli o‘zgarmagan holda saqlanib qolgan⁷¹. Shuningdek, Jizzax vohasi toponimlari orasida o‘rta asrlarga xos Abdal, Arg‘in, Olchin, Barlos, Ming, Mang‘it, Nayman, Saroy, Qangli, Qirq, Yuz (juz), Mo‘g‘ol, Turk, Qutchi, O‘damali, O‘ray, Qoraqo‘yli, G‘uralas, Qaropchi, Qipchoq, Turkman va hokazo kabi etnotoponimlar uchrashi diqqatga sazovordir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyoda kechgan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan turk va turk-mo‘g‘ul negizli o‘zbek urug‘lari bilan bog‘liq etnotoponimlarning aksariyati mintaqaning turli hududlarida muayyan aholi manzili sifatida saqlanib qolgan⁷². Bundan tashqari, urug‘larning joylashuv o‘rniga ko‘ra taqsimlanishi shu hududda yashayotgan aholining istaklariga ham muvofiq kelganligi ko‘rsatib o‘tiladi⁷³.

Jizzax vohasida turli davrlarga xos bo‘lgan etnotoponimlar uchraydi. Birgina O‘smat-qatortol va Sangzor volostida Chubar, Balxi, Barlos, Qirq-qishloq, Uvol, Mo‘g‘ol, Sartyuzi, Saroy, Uyuvli, Erganakli, Turkman va boshqa etnotoponimlar uchrab, bugungi kungacha saqlanib qolgan bo‘lib, bu holat o‘zining tarixiy asoslariga

⁷¹Хакимов Қ.М. Жой номларининг шаклланишида миintaqanining ижтимоий-иктисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент: 2010. – Б. 8, 14.

⁷² Маликов А. Тюркские этнотопонимы долины Зерафшана... – С. 111.; Карапев С. Топонимия Узбекистана. – Т.: “Фан”, 1991. – С. 55.

⁷³ ЎзР МА, И.21-фонд, 1-рўйхат, 511-иш, 12-варак орқаси.

ega⁷⁴. Shuningdek, Forish tumani ham Jizzax va Nurota vohalari orasida joylashgan muayyan bir kichik voha sifatida bilinib, bu yerda ilk o‘rta asrlarga xos bo‘lgan Abdal, Yovmut, Garasha, Turk, Ko‘sa, Qoraxon kabi bir qator aholi maskanlari biror etnonim bilan aloqadordir⁷⁵.

Mintaqadagi joy nomlarini tahlili natijasiga ko‘ra, Jizzax tumanida etnotoponimlar nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, ular orasida “qangli” etnonimining uchrashi diqqatga sazovordir. Chunonchi, “qangli” atamasi qadimgi turkiy urug‘laridan birining nomi sifatida o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, no‘g‘oy va yana bir qator turkiy xalqlar tarkibida saqlanib qolgan. Jizzaxlik o‘zbek qang‘lilariga yuz urug‘ining bir tarmog‘i deb qarash ham mavjud. Yuz yoki juz etnonimi bir qator turkiy xalqlar tillari tarkibida uchraydi. Jumladan, no‘g‘oylarda yuz g‘ yus, besh-yuz, qangli-yuz kabi etnonimlar uchraydi⁷⁶. Qizig‘i shundaki, Hofiz Tanish Buxoriyning XVI asrning oxirlariga oid “Sharafnama-i shohiy” asarida o‘zbek urug‘lari nomlari keltirilganda besh-yuz degan etnonim ham qayd etiladi⁷⁷. Yuz urug‘i tarkibidagi o‘nlab tarmoq urug‘ va kichik to‘plarning nomlaridan ko‘pchiligining Dashti Qipchoq turkiylari – boshqird, no‘g‘oy, qoraqalpoq, qozoq va boshqalarda ham uchrashi qadimgi davr va o‘rta asrlarda turkiy xalqlarning bitta ildizga ega bo‘lganliklari, ularning alohida elat va millatlarga ajralish jarayoni so‘nggi o‘rta asrlarda yuz bergenligini ko‘rsatadi. Yuz urug‘i tarmoqlari bo‘lmish xitoy-yuzi, turkman-juz, besh-yuz, qangli-yuz, erganakli, qarapchi, qoraqursoq va hokazo nomlar yuqorida tilga olingan turkiy xalqlarda ham keng tarqalgan etnonimlardir (*mas. qitay* (xitoy), *turkmen*, *qangli*, *erganakli* va h.k.)⁷⁸. Bu urug‘ va qabilalar uzoq muddat birga tarixiy-geografik makonda yashagan bo‘lib, keyinchalik ularning bir qismi o‘zlarining tarixiy yurtlariga qaytib ketadi.

To‘rtinchchi bobning ikkinchi paragrafi “*Voha toponimlarida hududiy aholi guruhlari va ijtimoiy toifa nomlarining aks etishi*” deb nomlanadi. Mazkur paragrafda mintaqaga xos toponimlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vohadagi aholi maskanlarining asosiy qismini etnonim va antropotoponimlar tashkil etganligi va turli tarixiy davrlarda ularning ayrimlari transformatsiyaga uchraganligi yoki ularning o‘rnida yangi nomlar paydo bo‘lganligi masalasi tahlil qilingan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax vohasidagi joy nomlari tarkibini tahlil qilinganda, o‘z urug‘ nomini biluvchi aholi tomonidan shakllangan toponimlar bilan bir qatorda, ilgari yashab o‘tgan guruhlar yoki muayyan geografik hududlar bilan bog‘liq nomlarning ham vohaning turli qismlarida uchraganligi kuzatiladi. Bu kabi joy nomlari quyidagicha: *nijoni*, *o‘ratepalik*, *ravatlik*, *toshkentlik*, *yaxtanlik*, *jizzaxlik*, *saroylik*, *balxi*. Shuningdek, aynan shu kabi toponimlarga xovostlik, qo‘qoni, anjanlik,

⁷⁴Ҳакимов Қ.М. Жой номларининг шаклланишида миintaqanining ijtimoiy-ikhtisodiy, geografik xususiyatlari (Жиззах вилояти мисолида). – Б. 15.

⁷⁵ O‘sha asar. – Б.15.

⁷⁶ Трепавлов В.В. История ногайской Орды. – Казань, 2016. – С. 494.

⁷⁷ Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней Азии XVI – XVIII вв. (Письменные памятники). – С. 54.

⁷⁸ Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. Этнический состав, история расселения / Р.Г. Кузеев. – 2-е изд., доп. – Уфа: Дизайн Полиграф сервис, 2010. – С. 250-260.; Трепавлов В.В. История ногайской Орды. – С. 486-496.; Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – С. 34-121.

qarshilik kabi joy nomlarini ham qo'shish mumkin⁷⁹. Bu kabi joy nomlarining nomlanishiga qarab o'lka aholisi yoki o'sha joy aholisi o'z ajdodlarini qaysi hududlardan kirib kelganligini anglashi mumkin. Masalan, Nijoni – O'ratepa vohasidan, Qarshilik – Qashqadaryo vohasidan, Toshkentlik – Toshkent hududidan, Ravotlik – Ravot hududidan, Qo'qoni – Farg'ona vodiysidan va h.k.

Tarkibida "xo'ja", "so'pi", "eshon", "mo'lla" va shunga o'xshash diniy toifa vakillari nomlaridan yasalgan joy nomlari, ya'ni antroponimlarning Jizzax vohasidagi tumanlarida tarqalish darajasi ham bir xil emas. Baxmalda Xo'jabachcha, Xo'jaqo'rg'on, So'pi-qishloq, Eshonbuloq, Eshonguzar, Oq-mo'lla, Mo'lla-buloq, Maxsum-qishloq, G'allaorol tumanida Xo'ja-kabud qishloq, Avliyo-qishloq, Zomin tumanida So'fimozor qishlog'i, Forish tumanida Mo'lali, Yangiobod tumanida Ho'jamushkent kabi qishloq nomlari uchrashi bilan birgalikda bir necha qishloqlar aholisi o'z kelib chiqishini xo'ja, eshon, shayx kabi ijtimoiy guruhlar bilan bog'lash holatlari ham kuzatiladi. Xuddi shunga o'xshash holat Jizzax vohasidagi deyarli barcha tumanlarda, yani din bilan bog'liq bo'lgan atamalardan yasalgan joy nomlari uchraydi.

Ushbu bobning so'ngi paragrafi "*Voha joy nomlarining etnonim, antroponim, patronim va kasb-hunar bilan bog'liqligi*" deb nomlanadi.

Jizzax vohasining XIX – XX asrlardagi toponimlari tarkibiga umumiylar nazar tashlanganda, voha toponimlarining katta bir qismini etnotoponimlar va patronimlar tashkil etishini kuzatish mumkin⁸⁰. Faqat bu holat vohaning hududlarida bir xil emas. Jumladan, yirik shaharlar – Jizzax va Zomin, O'smat, Mirzacho'l, G'allaorol, Forish, Do'stlik kabi o'rtacha kattalikdagi shaharlarda ko'proq aholining maishiy turmush tarzi (kasb-kor, hunarmandchilik) bilan aloqador joy nomlari, vohaning qishloq va ovullarida, xususan, Sangzor daryosining o'rta oqimi, daryobo'yi, dasht va cho'l hududlarida etnotoponim va patronimlar nisbatan ko'p uchrashi ko'zga tashlanadi.

